

**NAMANGAN SHAHRIDAGI AZIZXO‘JA ESHON MADRASASI  
YODGORLIGI ARXITEKTURASI**

arx.f.n.,(PhD) **Zafar Ravshanovich Adilov**

Namangan muhandislik-qurilish instituti.

telfon: +998 90 261 81 88 e-mail: [adilovzafar615@gmail.com](mailto:adilovzafar615@gmail.com)

talaba: **Nosirjanova Mohichexra Rasuljon qizi**

Namangan muhandislik-qurilish instituti

telfon: +998 77 056 22 00 e-mail: [mohchehranosirjonova12@gmail.com](mailto:mohchehranosirjonova12@gmail.com)

***Kalit soʻzlar:** madaniy yodgorliklar, madaniy meros, zamonaviy shaharsozlik, ziyoratgohlar, masjidlar, madrasalar, gumbaz.*

***Ключевые слова:** памятники культуры, объекты культурного наследия, современное градостроительство, святыни, мечети, купола.*

***Key words:** cultural monuments, objects of cultural heritage, modern urban planning, shrines, mosques, domes.*

Namangan viloyatida koʻplab arxitektura yodgorliklari boʻlib, ularni ilmiy va diniy binolarga ajratib oʻrganish mumkin. Ilmiy binolarga madrasalar va madrasai-oliyalar, maktablar va boshqalar kiradi.

Madrasa soʻzi arabchada «oʻrganmoq» maʼnosini anglatib, u Oʻrta Osiyoda umumiy va oliy taʼlim muassasasi sifatida VIII asr oxiri, yaʼni Arab halifasi davrida shakllangan. Madrasalar Buxoro va Samarqandda VIII asrning oxiri - IX asrning boshlarida qurila boshlangan. Unga qadar esa taʼlim ishlari, maktablar va masjidlarining kutubxonalarida hamda maxsus bilim uylarida olib borilgan. Madrasa oliy diniy maktab hisoblanib, bir vaqtda ustozlar va talabalar yashash joyi boʻlib ham xizmat qilgan.[1]

“XIX asr boshlarida Qoʻqon xonligiga boʻysingan 30000 atrofida aholisi boʻlgan Namangan shahrida 10 taga yaqin madrasa boʻlib, ularda 4300 talaba tahsil olgan”[1]. Namangan viloyatida, xususan Namangan shahrida joylashgan madrasalarning ayrimlarining tarixi va ularning arxitekturaviy yechimlariga toʻxtalib oʻtsak.

<sup>1</sup> Ўралов А.С., Қодирова Т.Ф. Ўрта Осиё архитектура ёдгорликларининг типологияси. Ўқув қўлланма. Тошкент. 2011. 67- 69-б.

Azizxo‘ja eshon madrasasi va masjid. “Xo‘jamning qabri” maqbarasi bilan yonma-yon bunyod etilgan obida Azizxo‘ja eshon madrasasi va masjididir. Madrasani XVIII asrning ikkinchi yarmida Azizxo‘ja ismli shaxs qurdirgan. Madrasa qurilishida asosan namanganlik ustalar faol ishtirok etgan. Madrasa binosi poydevori shibbalanib, tosh terilib, tosh ustidan qalinligi 15 santimetrlik archa qo‘yilib, archa ustidan to‘rt burchakli pishiq g‘isht loy bilan terilgan.[2]2

Madrasa 24 ta hujra, bir darsxona, bir qaznoq hamda masjid iborat bo‘lib, hujralarning 14 tasi janubiy, 10 tasi sharqiy tomonda, qaznoq, darsxona, masjid va xonaqoh esa g‘arbiy tomonda joylashtirilgan. Madrasaning sharqiy tomonidagi hujralari maqbaraga tutashtirib qurilgan. Madrasaga kirish eshigi ham shu tomonda bo‘lib, ustida bolaxonasi bo‘lgan. Ushbu hujralar hozirgi ko‘cha o‘rnida bo‘lgan. Sharqiy tomondagi hujralar bizning davrimizgacha yetib kelmagan.

Ta‘mirlash jarayonida mazkur hujralarning poydevori g‘isht bilan ko‘tarib qo‘yilgan. Hozirda madrasaning janubiy tarafida saqlanib qolgan 12 ta hujra ta‘mirlanib, buzilib ketgan ikki hujra qaytadan tiklangan. Bu hujralarning hammasi 3,5x3,5 metr o‘lchamda qurilgan bo‘lib, gumbazlari har xil shaklda ishlangan.[3]3

Azizxo‘ja Eshon madrasasida ta‘lim olgan talabalar orasidan ko‘zga ko‘ringan ma‘rifatparvar kishilar yetishib chiqqan. Shulardan biri shoir Mulla Yo‘ldosh Xilvatiydir. Madrasa hujralarida g‘azalxonlik kechalari bo‘lib turgan. Kechalarda Namangandagi madrasalarda ta‘lim olayotgan g‘azalshunoslar va ahli ilmlar ishtirok etgan. Ushbu kechalarda Nodim Namangoniyning do‘sti, Qo‘qonlik ma‘rifatparvar shoir Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy ham faol ishtirok etgan.[4]4

Namangan shahridagi yana bir yirik madrasa Mulla Qirg‘iz madrasasidir. Ushbu madrasasi Namangan shahriga ajoyib husn berib turgan arxitektura yodgorligi hisoblanib, qurilishi 1910 yilda boshlanib, 1912 yilda tugallangan. Madrasada 41 ta hujra bo‘lib, 3 ta yirik gumbaz mavjud. Madrasa asosan pishiq g‘ishtdan ravoq bog‘lash usuli asosida qurilgan. Bu esa qadimiy O‘rta Osiyo me‘morchilik an‘analariga mosdir. Bino besh burchak shaklida ishlanganligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi hamda bino peshtoqidagi koshin bezaklarining nafisligi bilan kishini o‘ziga tortadi. Yodgorlikning bosh tarzi ikki qavatli qilib qurilgan. Peshtoqdan hovliga kirilgach, o‘ng tomonida gumbazli darsxona hamda masjid joylashgan. Peshtoq ravog‘i ichiga: «Zabarjat toku zar oltin birla bu xat yozilmishdir. Karam ahlining ehsonidan, o‘zga qolmagay boqiy», ya‘ni «Har kim o‘zi ketsa ham,

<sup>2</sup> Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. – “Наманган”, 2008. 32-33 б.

<sup>3</sup> Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. – “Наманган”, 2008.

<sup>4</sup> Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Косимов А. Наманган вилояти маданий мероси. “Наманган”, 2013. 114-116 б.

uning ehsoni abadiy qoladi» deb yozib qo‘yilgan. Shuningdek: «Boqiy Mulla Qirg‘iz ibn Mashrabboy tijoriy. Usta Mulla Qirg‘iz ibn Ibrohimboy me‘mori», ya‘ni «Mulla Qirg‘iz Mashrabboy savdogar o‘g‘li. Usta Mulla Qirg‘iz Ibrohimboy me‘morning o‘g‘li» deb yozilib, bundan madrasani qurdirgan odamning hamda me‘morning ismlarini bilib olish mumkin.

Peshtoqda hamda bino ichida ganchsiz qilib terilgan sirkorlik usuli qo‘llanilgan bo‘lib, u Farg‘ona vodiysi yodgorliklariga xos bo‘lgan oq, zangori, havorang, sariq, ko‘k va och ko‘k rangdagi koshinlardan iborat.

Madrasaning o‘ng tomonida joylashgan darsxona hamda masjidning qurilish usuli hamda tashqi va ichki me‘moriy ko‘rinishi diqqatga sazovordir. Ushbu xonalar usti gumbazlar bilan yopilib, gumbazlar ustiga xona ichkarisiga yorug‘lik tushib turishi uchun maxsus darchalar o‘rnatilgan.

B.Ro‘zinov va S.Rajabovalarga ko‘ra, Mulla Qirg‘iz madrasasining tiklanishida Mirza Dadaboy va Toshboltavoy nomli ustalar tomonidan tayyorlangan to‘g‘ri burchak shaklidagi g‘ishtlar ishlatilgan bo‘lsa, madrasa peshtoqiga yopishtirilgan barcha koshinlarni Mulla Mamasiddiq, Abdurahmon, Abduqahhor va Mamadali kulollar tayyorlagan.

Namangan viloyatida qurilgan madrasalarning ayrimlari o‘rta asrlarda shakllangan madrasalar tipologiyasidan farq qilgan. Jumladan, Mulla Qirg‘iz madrasasining tarhiy yechimi hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib besh burchak tarzda shakllangan. Ushbu madrasi Namangan shahrining tarixiy markazida joylashib, hozirda saqlanmagan Saidqulibek madrasasi, Ayritosh va Ayritom masjidlari ro‘parasida qo‘sh uslubida qurilgan. Madrasada 1972, 1985, 2004, 2011 yillarda ta‘mirlash ishlari olib borilgan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўралов А.С., Қодирова Т.Ф. Ўрта Осиё архитектура ёдгорликларининг типологияси. Ўқув кўланма. Тошкент. 2011. 67- 69-б.
2. Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. – “Наманган”, 2008. 32-33 б.
3. Юсупов И.Ю., Мирзаалиев Э.Ю. Наманган вилояти меъморий обидалари сирлари. – “Наманган”, 2008.
4. Рўзинов Б., Ражабова С., Исмоилов Ю., Косимов А. Наманган вилояти маданий мероси. “Наманган”, 2013. 114-116 б.
5. Адилов З. Строительство медресе Муллы Кыргыза в городе Наманган //Сейсмическая безопасность зданий и сооружений. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 301-304.

6. Адиллов З. Р. НАМАНГАН ВИЛОЯТИ МАДРАСА БИНОЛАРИ МЕЪМОРЛИГИ //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 1. – С. 159-165.
7. Адиллов З. Р. и др. НАМАНГАН ВИЛОЯТИДАГИ ХЎЖА АМИН МАҚБАРАСИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 2. – С. 152-160.
8. Адиллов З. Р. НАМАНГАН ВИЛОЯТИ МАДАНИЙ МЕРОС ҲАЗИНАСИНИ АСРАШ МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРИМИЗНИНГ АСОСИДИР //ТА'ЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ONLAYN ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – С. 69-73.
9. Адиллов З. Р. ЁШЛАРГА МАДАНИЙ МЕРОС ҲАЗИНАСИНИ ТАРҒИБ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ //ИЖТИМОИЙ ФАНЛАРДА ИННОВАСИЯ ONLAYN ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 124-130.
10. Adilov Z. НАМАНГАН ВИЛОЯТИ ШАҲАРЛАРИНИНГ ШАҲАРСОЗЛИГИ //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. С6. – С. 259-264.